



O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI MODELLAR

Abdiraimova Xusnobod Samat qizi,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206503>

Annotatsiya: Zamonaviy ta’lim tizimi talablariga ko‘ra, o‘qitish jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish uchun yangi texnologiyalar va usullardan foydalanish zarur. O‘qish modellari shu borada muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali o‘quv materiallari mantiqiy tartibda taqdim etiladi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlari hisobga olinadi va o‘qitish jarayoni interfaol shaklda amalga oshiriladi.

Kalit so‘z: o‘qib tushunish, o‘qish modeli, Pastdan yuqoriga modeli, Yuqoridan pastga modeli, Interaktiv model, SVR modeli, Skarboro modeli.

Kirish. O‘qish bir qarashda juda oddiy jarayonday ko‘rinadi. Ba’zi bolalarda o‘qishni o‘rganish va savodxonlik qiyinchiliksiz kechadi. Ba’zilarida esa, savodxonlikning har bir bosqichi monumental kurashdir. Bolalar o‘qishni qanday va nima uchun o‘rganishni tushunish samarali ta’limni rejalashtirish uchun juda muhimdir. [1: 57-60]

O‘qishni o‘rganish jarayoni murakkab. Xo‘sh, biz o‘qituvchi sifatida qanday qilib o‘quvchilarimizga o‘qish savodxonligini rivojlanishiga yordam beramiz? Qanday qilib bizning o‘qitishimiz sinfimizdagi barcha o‘quvchilarga samarali bo‘lishi mumkin? Yillar davomida o‘qish haqidagi bilimlar o‘sib borar ekan, nazariyotchilar o‘qish jarayonini ifodalash uchun keng ko‘lamli o‘qish modellarini ishlab chiqdilar.

Asosiy mulohazalar. O‘qish modellari — bu o‘quv materiallarining mantiqiy va tizimli shaklda taqdim etilishi bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich egallashadi. Modellar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi, bu esa ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

A. Brownega ko‘ra, o‘qishning uchta asosiy modeli mavjud [2: 9]:

1. *Pastdan yuqoriga modeli.* O‘qishni o‘quvchining harflar, tovushlar va so‘zlarni bilishi va bu so‘zlarning qanday qilib jumlar tuzishi bilan boshlanadigan jarayon sifatida tasvirlaydi.

2. *Yuqoridan pastga modeli.* O‘quvchilar o‘qishni tilning tuzilishi va mazmuni, hikoyalar tuzilishi va boshqa janrlar, dunyo haqidagi bilimlari haqida umumiy ma’noni bashorat qilish orqali o‘qishni boshlaydilar.



3. *Interaktiv model*. K. Stanovich “ushbu model pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga modellarning xususiyatlarini birlashtiradi va o‘qishga ko‘proq urg‘u beradi” [5: 32-71], deb ta’kidlaydi. Bu modelda bolalar o‘qishga ko‘proq jalb qilinadi.

SVR (The simple view of reading) modeli. 1986-yilda P. Gough va W. Tunmer tomonidan taqdim etilgan. Ular o‘qishni tushunish harakatini ikkita kognitiv qobiliyatning dekodlash (Decoding) va tilni tushunish (Language Comprehension) mahsuli sifatida ta’rifladilar. Ular o‘qishni tushunishni formula bilan tushuntirib berdi [3: 6-10].

1-rasm. Dekodlash (D) x Tilni tushunish (LC) = O‘qishni tushunish (RC)



O‘qishni tushunish (0) = dekodlash (0) X tilni tushunish (1)

O‘qishni tushunish (0) = dekodlash (0) X tilni tushunish (0)

O‘qishni tushunish (0) = dekodlash (1) X tilni tushunish (0)

O‘qishni tushunish (1) = dekodlash (1) X tilni tushunish (1)

Boshqacha qilib aytganda, muvaffaqiyatli o‘qish uchun ushbu ikki komponentning har biri, dekodlash va tilni tushunish kuchli bo‘lishi va bir – biri bilan o‘zaro bog‘lanish hosil qilish kerak. P. Gough ta’kidlaganidek, uning modeli “pastdan yuqoriga” modeliga ekvivalent emas, bu yerda dekodlash bo‘yicha ko‘rsatma oldin va tushunish ko‘rsatmasidan ajralib turadi [4: 130].

“Skarboro” modeli. (Scarborough’s Reading Rope). (O‘qish arqoni yoki o‘qish ipi modeli). Mohir o‘qishni bir-biriga o‘ralgan ikkita ipdan iborat bo‘lgan mustahkam arqon uzunligiga o‘xshatadi. O‘qish ipi pastki va yuqori iplardan iborat. So‘zni tanib olish yo‘nalishlari (so‘zlarni fonologik idrok etish, dekodlash va ko‘rish orqali tanib olish) birgalikda ishlaydi, chunki o‘quvchi takrorlash va mashq qilish bilan aniq, ravon o‘qiydi. Shu bilan birga, tilni tushunish yo‘nalishlari (asosiy bilimlari, lug‘at, til tuzilmalari, og‘zaki fikrlash va savodxonlik bilimlari) bir-birini mustahkamlaydi.


“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Ba’zi o‘qituvchilar Skarboro infografikasini o‘qishning oddiy ko‘rinishidan alohida model sifatida chalkashtirib yuborishlari mumkin, lekin aslida u bizga o‘qishni o‘rgatish uchun eng muhim narsani vizual ravishda ko‘rsatadi. O‘qish ipi ba’zi bir kichik ko‘nikmalarni to‘ldiradi va qo‘shadi, lekin u o‘qishning oddiy ko‘rinishidan alohida emas.

2-rasm. Skarboro infografikasi.


O‘qish yo‘riqnomasi. “Katta 6” modeli. P. Gough modeliga o‘xshab ketadi. Fonologik xabardorlik va fonika. Tushunish sarlavhasi ostida ikkitasi mos keladi: Tushunish va og‘zaki til. Ravonlik o‘rtada joylashgan bo‘lib, har ikki tomonni



qamrab oladi, chunki birinchidan, bu o‘quvchilarga dekodlashda avtomatizmni rivojlantirishga yordam beradi, ikkinchidan, dastlabki o‘qishni o‘rganish yillarda tushunishga yordam beradi (garchi bu ta’sir o‘quvchilar yoshi ulg‘aygan sayin susayishi mumkin) [6: 209].

3-rasm. O‘qish yo‘riqnomasi. “Katta 6” modeli.

“Katta 6” modeli tarkibiga quydagilar kiradi: fonemik xabardorlik yoki



so‘zlardagi tovushlarni eshitish va boshqarish qobiliyati, fonika – tovush birliklari va bosma so‘z o‘rtasidagi munosabat, lug‘at – so‘z ma’nolarini o‘rganish, ravonlik – aniqlik, tezlik va prosodiya (intonatsiya va ritm), tushunish – retseptiv ma’no yasash,

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



og‘zaki til – o‘qituvchilarga oddiy lug‘at emas, balki sinfda kengaytirilgan izchil o‘quvchilar nutqi.

O‘qish modellari o‘qish jarayonini osonlashtiradi, o‘quvchilarning faolligini oshiradi, individual yondashuvni ta‘minlaydi, o‘qitish jarayonini samaradorligini oshiradi.

Xulosa. O‘qish modellari zamonaviy ta‘lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Ular orqali o‘quv jarayoni samarali tashkil etiladi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari rivojlanadi. O‘qish modullarini to‘g‘ri ishlab chiqish va qo‘llash orqali ta‘lim sifatini oshirish mumkin. Kelajakda ushbu sohada yangi texnologiyalar va usullarni qo‘llash orqali o‘qitish jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdiraimova X.S. Boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limida o‘qib tushunish malakasini nazariy asoslari. Til va adabiyot, 14-son, 2024. – b. 57-60.
2. Browne A. A Practical Guide to Teaching Reading in the Early Years. London: Paul Chapman Publishing Ltd. 1998. – p. 9.
3. Gough P. and Tunmer W. Decoding, reading, and reading disability. Remedial and Special Education, 7, 1986. – p. 6–10.
4. Hoover W. and Gough P. The simple view of reading. Reading and Writing: An Interdisciplinary Journal, 2, 1990. – p. 130.
5. Stanovich, K. Towards an Interactive Compensatory Model of Individual Reading Differences in the Development of Reading Fluency. Reading Research Quarterly, vol. 16, no. 1, 1980. – p. 32-71.
6. Pressley M. Reading instruction that works: the case for balanced teaching. Guilford Press. 2006. – p. 209.